



NAIM KARIMOV IJODIDA ADABIY PORTRET JANRI

Olimova Muxtasarxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Naim Karimovning adabiy portret janridagi ijodiy merosi, shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligidagi o'rni va xizmatlari tahlil qilindi. Maqolada olimning Oybek, Cho'lpon, Behbudiy, Mirtemir kabi shoir va adiblar portretini yaratishdagi metodologiyasi, tarixiy va badiiy yondashuvi ochib berildi. N. Karimov nafaqat adiblarning ijodini, balki ularning shaxsiyati, ichki dunyosi va davr bilan bog'liqligini ilmiy-estetik uyg'unlikda tasvirlash orqali adabiy portret janrining rivojiga katta hissa qo'shdi. U yaratgan portretlar nafaqat biografik, balki tarixiy, ma'naviy va badiiy qiymatga ega bo'lib, o'quvchi va jamoatchilikni shoir va yozuvchilar hayoti hamda ijodiy jarayoni bilan tanishtirishi, shu bilan birga, Naim Karimov adabiyotshunoslikka yangicha qarash va tahliliy yondashuvlarni olib kiritgani, uning yaratgan asarlarining badiiy qimmatini haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Naim Karimov, adabiy portret, o'zbek adabiyoti, adabiy tanqid, Oybek, Cho'lpon, Behbudiy, Mirtemir, tarixiy-biografik tadqiqot, ijodiy tahlil.

KIRISH. O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqid taraqqiyotida munosib o'rin egallagan olimlardan biri Naim Karimov hisoblanadi. U nafaqat adabiyotshunos olim, balki mohir publitsist, iste'dodli yozuvchi va chuqur tahlilchi sifatida ham tanilgan. Naim Karimov o'z ilmiy va ijodiy faoliyati davomida o'zbek adabiyoti tarixini o'rganish, uning yetuk namoyandalarini keng jamoatchilikka tanitish hamda adabiy jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilishga katta hissa qo'shdi. Naim Karimov XX asr o'zbek adabiy muhitini chuqur o'rgangan, ayniqsa jadid adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti hamda tarixiy-adabiy jarayonlarga oid tadqiqotlari bilan ajralib turadi. U o'z ilmiy izlanishlarida adabiy merosni qayta baholash, unutilgan yoki yetarlicha o'rganilmagan ijodkorlar faoliyatini tiklashga



alohida e'tibor qaratdi. Shu jihatdan u o'zbek adabiyotshunosligida yangicha qarash va yondashuvlarni olib kirgan olim sifatida e'tirof etiladi. Adabiy tanqid sohasida ham Naim Karimovning xizmatlari beqiyosdir. U adabiy asarlarni faqat baholash bilan cheklanmay, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, muallif shaxsiyati va davr ruhini uyg'un holda ochib berishga intildi. Tanqidiy maqolalari, esselari va ilmiy asarlarida u adabiyotning jamiyat hayotidagi o'rni, uning ma'naviy-axloqiy ahamiyati haqida teran fikrlar bildirib o'tgan. Shuningdek, Naim Karimov ijodida adabiy portret janri alohida o'rin tutadi. U yaratgan adabiy portretlarda yozuvchi va shoirlarning nafaqat ijodi, balki ularning insoniy qiyofasi, ichki dunyosi, davr bilan bog'liqligi ham badiiy va ilmiy uyg'unlikda tasvirlanadi. Shu sababli uning bu yo'nalishdagi izlanishlari o'zbek adabiyotshunosligida adabiy portret janrining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Tanqidchilikda keng tarqalgan yozuvchi hayoti va ijodini yorituvchi adabiy tanqidiy asarlar janri adabiy portret deb belgilanadi, muomala amaliyotida, ko'pincha, portret deb yuritiladi”¹. Naim Karimov adabiy portret janrida o'zining tarixiy ahamiyatini oshirgan ijodkorlardan biridir. U nafaqat o'z asarlari bilan, balki o'zining qalamiga mansub biografik tavsiflari va tahlillari bilan ham tanilgan. Uning adabiy portretlari o'ziga xos uslub va yondashuvga ega bo'lib, muallifni tanitishda, uning ichki olamini ochishda, shuningdek, zamonaviy hayot va tarixiy kontekstda bir-biriga bog'lashda muhim rol o'ynaydi. Naim Karimov o'zining adabiy portret janridagi asarlarida nafaqat ijodkorlarning shaxsiyati va ijodiga e'tibor bergan, balki ularning umr yo'li, dunyoqarashi va ijodiy uslublarini chuqur tahlil qilgan. U o'z adabiy portretlarida ko'pincha tarixiy shaxslar bilan bog'liq kontekstni kiritadi, bu orqali o'quvchilarni ularning g'oyasi, ijodiy jarayoni va shaxsiy hayotiga qiziqtiradi. "N. Karimov Behbudiy va Hamzadan tortib, H. Xudoyberdiyeva va Usmon Azimgacha bo'lgan ko'plab shoir va adiblar haqida tadqiqotlar yaratdi, maqolalar

¹ Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr". 2010. 227-bet.



yozdi. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning «XX asr adabiyoti manzaralari» nomli salmoqli kitobiga nazar tashlashning o'zi kifoya. Oybek shaxsi va ijodi N. Karimov uchun to'm ma'nodagi sehrli ma'vo bo'lib qoldi. XX asrning so'nggi choragidan buyon Oybek hayoti va ijodini tadqiq hamda targ'ib etish N. Karimov hayotining mazmuni bo'lib qoldi. Chorak asr ichida Oybek haqida e'lon qilingan yuzga yaqin maqola, besh kitob, yigirma jildlik nashrga bosh-qosh bo'lishi buning dalili bo'la oladi. Gap faqat maqola, kitob, bajarilgan ish sanog'idagina emas, ularning salmog'ida, mohiyatida, yangiligida, yangi zamonning yangi talablariga munosib ekanida"².

Naim Karimov adabiy portret janrida nihoyatda sermahsul ijod qilgan olimlardan biridir. Xususan, Oybek, uning umr yo'ldoshi Zarifa Saidnosirova bilan bog'liq hayotiy va ijodiy munosabatlari, Usmon Nosirning fojeali taqdiri va jo'shqin ijodi, Hamid Olimjon hamda G'afur G'ulomning serqirra adabiy merosi haqidagi risolalarida ham muallif ularning har birini o'ziga xos ruh, uslub va tarixiy muhit bilan uyg'un holda tasvirlaydi. Bu asarlarda ijodkorlarning nafaqat hayoti va faoliyati, balki ichki dunyosi, badiiy tafakkuri va davr bilan aloqasi chuqur tahlil qilinadi. Naim Karimovning adabiy portret yaratishdagi mahorati shundaki, u har bir siymoni alohida shaxs sifatida emas, balki muayyan tarixiy davr, ijtimoiy muhit va milliy tafakkur bilan bog'liq holda yoritadi. Natijada uning yaratgan portretlari oddiy biografik bayondan yuksalib, badiiy-estetik va ilmiy qiymatga ega mukammal tadqiqot darajasiga ko'tariladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Naim Karimov "Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon" nomli risola yozgan bo'lib, unda shoirning ko'p qirrali portretini chuqur va ta'sirchan tarzda ochib beradi. Ushbu risolada Cho'lpon nafaqat ijodkor sifatida, balki murakkab ruhiy olamga ega inson, millat fidoyisi va fojeali taqdir egasi sifatida tasvirlanadi. Avvalo, asarda shoirning badiiy-ruhiy olami yuksak mahorat bilan yoritilgan. Muallif Cho'lponning ijod jarayonini tasvirlar ekan, uning qalbida tug'iladigan nozik

² B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent – 2012. 297-bet.



tuyg'ularning asta-sekin kuchayib, badiiy obrazlarga aylanishini jonli tasvirlaydi. Turli o'xshatishlar va poetik ifodalar orqali shoirning sezgirligi, nafis didi va ichki kechinmalarining boyligi ochib beriladi. Bu esa Cho'lponni oddiy ijodkordan ko'ra, ilhom bilan yashaydigan, ruhiy olami nihoyatda teran shaxs sifatida namoyon etadi. Shuningdek, "Cho'lpon — tong yulduzi" obrazi orqali shoirning ramziy portreti yaratiladi. Tong yulduzi timsoli uning millat uchun yo'l ko'rsatuvchi, zulmatni yorib chiqqan nur ekanini anglatadi. Muallif shu orqali Cho'lponni xalqni uyg'otishga chorlagan, yangilanish va erkinlik g'oyalarini targ'ib qilgan buyuk siymo sifatida talqin qiladi. Asarda shoirning hayot yo'li ham alohida e'tibor bilan yoritilgan. "Hayot sahifalari" qismida Cho'lponning murakkab va fojeali taqdiri ochib beriladi. Uning ta'qib ostida qolishi, asarlarining yo'q qilinishi, nomining uzoq vaqt tilga olinmasligi kabi holatlar orqali o'sha davrning shafqatsiz siyosiy muhiti aks ettiriladi. Bu esa shoirning nafaqat ijodiy, balki insoniy jasorati va matonatini ham ko'rsatadi. Bundan tashqari, Cho'lpon ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham faol shaxs sifatida tasvirlanadi. U jadidchilik harakatining faol vakili sifatida xalqni ma'rifatga, erkin fikrlashga chorlagan, matbuot va adabiyot orqali milliy ongni uyg'otishga xizmat qilgan. Shu jihatdan u faqat shoir emas, balki ma'rifatparvar va kurashchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Risolada shoirning shaxsiy fazilatlari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning jasorati, fidoyiligi, yangilikka intilishi va nozik qalbi turli badiiy vositalar orqali ochib berilgan. Ayniqsa, uning xalq taqdiri uchun qayg'urishi va millat kelajagi yo'lida qilgan xizmatlari alohida ta'kidlanadi. Xulosa qilib aytganda, Naim Karimov ushbu parchalarda Cho'lpon obrazini har tomonlama mukammal ochib bergan. Shoir badiiy jihatdan nozik qalbli ijodkor, ramziy ma'noda millat uyg'onishining timsoli, tarixiy jihatdan fojeali taqdir egasi va ijtimoiy jihatdan faol ma'rifatparvar sifatida tasvirlanadi. Shu bois bu asar Cho'lpon siymosini chuqur anglashda muhim manba hisoblanadi. N.Karimov Cho'lpon hayoti va ijodiga bag'ishlangan yana bir risola yozgan bo'lib, uning nomini "Istiqlolni uyg'otgan shoir" deb ataydi. Unda Cho'lponning milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yalovbardori ekanini, uning barcha turdagi asarlari XX asr boshlaridagi mudroq xalqni uyg'otishga xizmat qilganini alohida ta'kidlab o'tadi.



Naim Karimov yaratgan adabiy portretlar orasida Behbudiy haqidagi asar ham o‘rin olgan bo‘lib, olim Mahmudxo‘ja Behbudiy obrazini yaratishda, avvalo, uning tarixiy shaxs sifatidagi o‘rni va milliy uyg‘onish harakatidagi yetakchilik rolga alohida e‘tibor qaratadi. Muallif Behbudiyni oddiy adib yoki ma‘rifatchi sifatida emas, balki XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning bosh tashabbuskorlaridan biri sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan qaraganda, adabiy portret yaratishda tarixiylik va davr ruhi yetakchi o‘rin egallaydi. Asarda Behbudiyning faoliyati uch asosiy yo‘nalishda — maorif, matbuot va teatr sohalarida yoritiladi. Muallif uning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi xizmatlarini ko‘rsatish orqali xalqni jaholatdan chiqarish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarini ochib beradi. Shu bilan birga, milliy matbuotning shakllanishida tutgan o‘rni alohida ta‘kidlanib, uning ijtimoiy ongini uyg‘otishdagi roli asoslab beriladi. Ayniqsa, birinchi o‘zbek dramasi muallifi sifatida tilga olinishi Behbudiyning nafaqat ma‘rifatchi, balki milliy madaniyat asoschilaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

"Bugungi tomoshabin va kitobxon uchun birinchi o‘zbek dramasi ibtidoiy asar bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin hali zamonaviy teatr san‘atidan yaxshi xabardor bo‘lmagan tomoshabinlar uchun “Padarkush”ning 1914 yildagi namoyishlari afsonavor voqea edi. O‘zbek madaniyati tarixida yangi san‘at – teatr san‘ati tug‘ilgan edi. Behbudiy va uning safdoshlari matbuot orqali bu yangi san‘atni keng targ‘ib qilishga kirishdilar. Behbudiy teatrga bag‘ishlangan qator maqolalar yozib, bu san‘atning ahamiyatini bunday tushuntirdi: “Teatr nimadur? Janobig‘a teatr ibratnamodur, teatr va‘zxonadur, teatr ta‘zir adabidir. Teatr oynadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rub, kar-quloqsizlar eshitib asarlanur. Xulosa: teatr va‘z va tanbeh etuvchi hamda zararli odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayon ko‘rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir”³.

Naim Karimov adabiy portret yaratishda Behbudiyning g‘oyaviy qarashlariga ham chuqur e‘tibor beradi. U ilgari surgan asosiy g‘oya — xalqni

³ Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent – 2010. 45-bet.



ma'rifat orqali ozodlikka olib chiqish tamoyili sifatida talqin qilinadi. Muallif bu g'oyani shunchaki nazariy qarash sifatida emas, balki tarixiy zarurat darajasiga ko'tarilgan harakat sifatida ko'rsatadi. Shu orqali Behbudiy obrazida fidoyilik, jasorat va uzoqni ko'ra bilish kabi sifatlar mujassamlashtiriladi. Shuningdek, portret yaratishda davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoiti ham muhim omil sifatida aks ettiriladi. Muallif Turkistonning mustamlakachilik ostida qolishi, xalqning ijtimoiy va huquqiy ongining pastligi kabi holatlarni ko'rsatib, Behbudiy va uning safdoshlari oldida turgan asosiy to'siqlarni ochib beradi. Aynan shu fon orqali Behbudiyning faoliyati yanada yuksakroq baholanadi, uning qilgan ishlari oddiy islohot emas, balki millat taqdirini o'zgartirishga qaratilgan harakat sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, Naim Karimov Behbudiyning shaxsiy fazilatlarini ochishda ham muayyan badiiy vositalardan foydalanadi. U fidoyi, jasur, ma'rifatparvar, xalq dardini chuqur his etadigan inson sifatida gavdalantiriladi. Muallif uni millat manfaatini shaxsiy hayotidan ustun qo'ygan, shu yo'lda hatto jonini fido qilgan ulug' siymo darajasiga ko'taradi. Bu esa portretga emotsional-ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, muallif Behbudiyini boshqa mashhur tarixiy shaxslar bilan qiyoslash orqali uning miqyosini kengaytiradi. Uni jahon va boshqa xalqlar ma'rifatparvarlari bilan bir qatorda tilga olish orqali Behbudiyning faqat mahalliy emas, balki umumtamadduniy ahamiyatga ega shaxs ekanini ko'rsatadi. Bu usul adabiy portretning salmoqdorligini oshiradi.

Naim Karimov "Mirtemir" nomli tarixiy-biografik romanida ham Mirtemirning adabiy portretini mukammal shaklda ochib bergan. Naim Karimov Mirtemir portretini yaratishda qiyosiy-obrazli uslubdan ham unumli foydalanadi. XX asr adiblarini "tog' cho'qqilari"ga qiyoslash orqali ularning badiiy salohiyati va tarixiy ahamiyatini ifodalaydi. Shu fon asosida Mirtemir ham ana shu cho'qqilar qatoridan o'rin olgan ijodkor sifatida talqin qilinadi. Bu usul shoirning adabiy miqyosini kengaytirib, uni yuksak badiiy darajaga ko'taradi. Asarda Mirtemir ijodining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida uning chuqur milliy ruh bilan sug'orilgani alohida ta'kidlanadi. Muallif shoir she'riyatida aks etgan obrazlarning hayotiyliги, xalqona ruhda yaratilgani va o'ziga xos individualligi ustida to'xtaladi.



Mirtemir qahramonlari oddiy insonlar bo'lsa-da, ularning ichki dunyosi, fikrlashi va yashash tarzi orqali milliy xarakter yorqin namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, adib ijodi o'zbek xalqining ruhiy olamini aks ettiruvchi badiiy ko'zguga aylantiriladi: "Mirtemirning 1935 yili Toshkentga qaytib kelganidan so'ng yozgan she'rlaridan biri "Suluv" deb ataladi. Bu she'rning dastlabki satrlariyoq shoir dutori torlari uzilmaganidan, aksincha, nekbin ohanglar olami bilan hamohang jaranglashda davom etayotganidan darak bergan edi:

Xushbaxt qo'shiqlardan jaranglar osmon,
Yalla tovush ari uchadi baland.
Ko'ngil yayrab ketar, olam olar shon,
Gullar manzarasi sevinchga payvand.
Yurak to'lqinlarim: yoz, deydi, bayot!
Qo'shiqlar keladi dilga butun yod.
Alvon lavhalarda yarqirar hayot,
She'r bo'lur bunyod.

Demak, hayot daryosining oqishi, yil fasllarining almashishi, bahor shabadalarining atirgullar uforini olib kelishi bilan shoir qalbidagi jarohatlar bir oz bo'lsa-da malham topgan va uning qo'llari ilhom tulpori jilovini mahkam ushlab olgan edi"⁴

Bundan tashqari, Mirtemir portreti ikki yo'nalishda — shoir va tarjimon sifatida yoritiladi. Muallif uni "ikki qanotli ijodkor" sifatida talqin qilib, bir tomondan, uning original she'riy merosini, ikkinchi tomondan esa jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga tarjima qilishdagi xizmatlarini yuksak baholaydi. Bu orqali Mirtemir nafaqat milliy adabiyot doirasida, balki jahon adabiy jarayoni bilan bog'liq holda ham tasvirlanadi. Naim Karimov shoirning adabiy portretini yaratishda uning insoniy fazilatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Mirtemirning kamtarligi, samimiyligi, saxovatligi kabi sifatlar badiiy tasvir orqali ochib beriladi. Bu esa ijodkor shaxsiyati va uning asarlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi.

⁴ Naim Karimov. Mirtemir. Tarixiy-biografik roman. Toshkent: "Meriyus" -2012. 115-bet



Natijada shoir obrazi faqat ijodiy qirralari bilan emas, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham mukammal tasvirlanadi. Umuman olganda, muallif Mirtemir adabiy portretini yaratishda tarixiylik, qiyosiylik, badiiylik va ma'naviylik tamoyillariga tayanadi. U shoirni milliy adabiyot taraqqiyotining muhim vakili, xalq ruhiyatining ifodachisi, yuksak didli ijodkor va barkamol inson sifatida har tomonlama yoritadi. Shu bois risolada Mirtemir siymosi nafaqat adabiy, balki tarixiy va ma'naviy jihatdan ham chuqur ochib berilgan. Shu kabi adabiy portretlar orqali Naim Karimov nafaqat o'quvchilarni, balki keng madaniy jamoatchilikni ham o'zining fikriga hamda qarashlariga jalb etadi. Uning ijodi umr bo'yi davom etadigan bir madaniy merosdir, unda har bir shaxs o'zining shaxsiy tarixini, g'oyalarini va tuyg'ularini topishi mumkin. Bu esa uni adabiyotimizda beqiyos shaxsga aylantiradi. Shu bois Naim Karimovning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi betakror va beqiyosdir. U yaratgan adabiy portretlar o'zbek adabiyoti tarixini chuqurroq anglash, ulug' siymolar merosini qadrlash va ularni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Naim Karimovning asarlari o'zbek adabiyotshunosligida bebaho ilmiy va badiiy qimmatga ega. U yaratgan adabiy portretlar orqali shoir va yozuvchilarning nafaqat ijodiy merosi, balki ichki dunyosi, shaxsiyati va davr bilan bog'liqligi yuksak badiiy-estetik uyg'unlikda ochib berildi. Olimning adabiyotga beminnat xizmati tufayli hozirda biz ko'plab adib va shoirlarning hayoti va ijodi haqida mukammal ma'lumotlarga egamiz. Naim Karimovning bu izlanishlari adabiyot sohasida chuqur va salmoqli ilmiy meros qoldirdi, uning ijodi esa nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng madaniy jamoatchilik uchun ham bebaho manba sifatida xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: “Sharq”, 2010.
2. Karimov N. Istiqlolni uyg'otgan shoir: Cho'lpon hayoti va ijodi. – Toshkent: “Fan”, 2012.
3. Karimov N. Mirtemir: tarixiy-biografik roman. – Toshkent: “Meriyus”, 2012.



4. Karimov N. Adabiy tanqid va portret yaratish metodikasi. – Toshkent: “Ilm”, 2018.
5. Karimov N. Adabiy portret va o‘zbek shoirlari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2009.
6. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent – 2010
7. Dilmurod Qur‘onov. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent. “Akademnashr”. 2010
8. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent. 2012